

TIL BELGILAR SISTEMASI SIFATIDA. TIL SATHLARI VA ULARNING BIRLIKLARI

Shukurova Rohatoy

Nazarova Nilufar

Onorxol Amanova

Annotatsiya: *Ushbu maqolada til belgilar tizimi sifatida o'rganilib, uning asosiy xususiyatlari va tilning strukturaviy sathlari – fonetik, leksik, morfologik, sintaktik va nutqiy darajalar tahlil etiladi. Har bir sathning o'ziga xos birliklari hamda ularning umumiy til tizimidagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, til belgilarining ijtimoiy-madaniy va kommunikativ vazifalari, semiotik yondashuv nuqtayi nazaridan baholanadi. Maqola yakunida tilni yaxlit tizim sifatida anglashning nazariy-amaliy ahamiyati haqida xulosa chiqariladi.*

Kalit so'zlar: *til belgisi, semiotika, fonetik sath, leksik birlik, morfema, sintaktik konstruktsiya, til tizimi, nutq.*

KIRISH

Nazariy tilshunoslikda muhim va murakkab masalalardan biri — sistema va struktura tushunchalari o'rtasidagi munosabatdir. Sistema butunlik, yaxlit obyekt sifatida qaralsa, struktura esa shu sistema tarkibiga kiruvchi elementlarning o'zaro bog'lanishi, tartibi va tuzilishi sifatida namoyon bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, sistema — qismlardan tashkil topgan yaxlitlik, struktura esa shu qismlar o'rtasidagi ichki aloqalar va munosabatlarning tartibidir. Demak, sistema — umumiylik, struktura esa xususiylikni bildiradi.

Tilshunoslik (lingvistika) — bu tilning mohiyati, uning ijtimoiy tabiatini, vazifalarini, ichki tuzilishini, tasnifini hamda alohida tillarning amal qilish

qonuniyatlari va tarixiy rivojlanishini o'rganuvchi fandır. Tilshunoslik o'z maqsad va vazifalariga ko'ra turli yo'nalishlarga bo'linadi.

Birinchi yo'nalish — Umumiy tilshunoslik, u tilni insoniyatga xos umumiy hodisa sifatida ko'rib, dunyo tillari uchun mushtarak bo'lgan belgilarni aniqlash bilan shug'ullanadi.

Ikkinchi yo'nalish — Xususiy tilshunoslik, u ma'lum bir tilning o'ziga xos xususiyatlarini tadqiq qiladi.

Yana bir muhim bo'lim — Amaliy tilshunoslik bo'lib, u tildan foydalanishga oid amaliy masalalarni (eksperimental fonetika, leksikografiya, lingvostatistika, transkripsiya, transliteratsiya va boshqalar) hal etish uchun metodlar ishlab chiqadi.

Shuningdek, matematik lingvistika, strukturaviy tilshunoslik, qiyosiy-tarixiy tilshunoslik, paralingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika, sotsiolingvistika kabi sohalar ham mavjud bo'lib, ular tilning jamiyat va shaxs faoliyatidagi o'rnini turli nuqtai nazardan o'rganadi.

Tilshunoslik shuningdek tilning alohida sathlari va birliklarini o'rganuvchi ko'plab tarmoqlarga ega:

- Semasiologiya — til birliklari ma'nolarini tahlil qiladi;
- Fonetika va fonologiya — tilning tovush tizimini o'rganadi;
- Leksikologiya va frazeologiya — lug'at boyligi va iboralarni tahlil qiladi;
- So'z yasalishi — yangi so'zlarning hosil bo'lish jarayonlarini tekshiradi;

- Grammatika (morfologiya va sintaksis) — soʻz shakllari va gap tuzilish qonunlarini tadqiq etadi.

Bu boʻlimlarning har biri oʻz navbatida yanada kichik boʻlimchalarga boʻlinishi mumkin. Masalan, leksikologiya tarkibidagi onomastika boʻlimi — oʻz ichiga antroponimika, toponimika kabi kichik sohlarni qamrab oladi.

Tilning hududiy farqlarini dialektologiya oʻrganadi. Har bir boʻlimda tilning hozirgi holati (sinxroniya) va tarixiy taraqqiyoti (diaxroniya) ham alohida oʻrganiladi.

Dunyo tillari, ularning oilalari va guruhlarini tadqiq etuvchi maxsus tarmoqlar ham mavjud: arabistika, germanshunoslik, turkiyshunoslik, slavyanshunoslik, fin-ugorshunoslik va boshqalar. Tilning bir tildan ikkinchisiga oʻtishi, ularning oʻzaro taʼsiri hamda xalqaro yordamchi tillarni yaratish masalalari interlingvistika va tarjima nazariyasi tomonidan oʻrganiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sistema elementlari oʻrtasidagi munosabatlarning yigʻindisi uning strukturasi hisoblanadi. Shu boisdan sistema va struktura sinonim tushunchalar emas, balki oʻziga xos xususiyatlarga ega, qisman mustaqil, ammo bir-biriga dialektik jihatdan bogʻlangan kategoriyalardir. Sistema obyekt sifatida mavjud boʻlsa, struktura uning tarkibiy qismlarini birlashtiruvchi ichki tuzilish hisoblanadi. Har qanday sistema ajralib turuvchi qismlar va elementlardan iborat boʻlib, ularning mavjudligi sistema alohidaligining eng muhim belgisi sanaladi. Masalan, quyosh sistemasi, transport sistemasi, taʼlim sistemasi yoki tirik organizmlar sistemasi bunga misol boʻla oladi.

Sistema va struktura tushunchalari tabiat hamda jamiyat hodisalarini ilmiy tahlil qilishda keng qo'llaniladi. Shuningdek, obyektiv borliq turli sistemalardan iborat bo'lib, ular asosan moddiy (material) va g'oyaviy (ideal) sistemalarga ajratiladi.

Moddiy sistemalar muayyan moddiy elementlardan tashkil topgan bo'lib, ular cheksiz ko'rinishlarga ega. Masalan, toshning tarkibida molekulalar, molekulaning tarkibida esa atomlar mavjud. Har qanday inshoot, bino, daraxt yoki jonli organizm moddiy sistema sifatida qaraladi. Moddiy sistemaning asosini uning elementlari tashkil etadi.

Lingvistik naturalizmni tanqid qilish jarayonida nemis olimlari A. Leskin, K. Brugman, G. Ostxof, B. Delbryuk, G. Paul va boshqalar tashabbusi bilan yosh grammatikachilar maktabi shakllandi. Bu maktab asosan tirik, ya'ni jonli tillarni o'rganishga e'tibor qaratib, qiyosiy-tarixiy tilshunoslikni yangi bosqichga olib chiqdi. XIX asrda hind-yevropashunoslikning asosiy yo'nalishlari – ellinistika, romanistika, germanistika, slavyanshunoslik, keltshunoslik va boshqalar – to'liq shakllanib bo'ldi. Hind-yevropa tillari uchun ishlab chiqilgan qiyosiy-tarixiy metod prinsiplari keyinchalik boshqa tillarga ham tadbiq qilindi. Natijada turkiyshunoslik, fin-ugorshunoslik, afrikashunoslik kabi yangi sohalar vujudga keldi.

XX asr boshlarida Ferdinand de Sossyurning “Umumiy tilshunoslik kursi” (1916) asari katta ta'sir ko'rsatdi. U tilning belgi nazariyasini ishlab chiqdi, sinxroniya va diaxroniya, ichki va tashqi lingvistika masalalarini yoritdi. Sossyur g'oyalari keyinchalik Praga lingvistik maktabi (funktional tilshunoslik), Kopengagen to'garagi (glossematika), Jeneva maktabi va Amerika deskriptiv tilshunoslik oqimlarida yanada rivojlantirildi.

Strukturalizm oqimlari bilan bir qatorda boshqa qarashlar ham paydo bo'ldi. Masalan, psixologik yo'nalish (X. Shteyntal, V. Vundt va rus olimi V. V. Potebnya ishlari), neyrolingvistika, eksperimental fonetika va lingvistik geografiya rivojlandi. Keyinchalik tilshunoslikda yangi tarmoqlar – psixolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika, semiotik lingvistika, matn lingvistikasi shakllandi. Hozirgi zamon xorijiy tilshunosligida materialistik nazariyalar bilan bir qatorda idealistik yo'nalishlar, masalan, lisoniy nisbiylik nazariyasi yoki yangi gumboldtchilik ham mavjud.

O'zbek tilshunosligi tarixi Mahmud Koshg'ariy va Zamaxshariy izlanishlaridan boshlanib, uzoq tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Uni quyidagi davrlarga ajratish mumkin:

1. XI–XV asrlar;
2. XV asrdan XX asrning 20-yillarigacha;
3. XX asrning 20–40-yillari;
4. XX asrning 40–90-yillari;
5. Mustaqillik davri.

Ana shu bosqichlarni bosib o'tib, zamonaviy o'zbek tili shakllandi. Mustaqillikdan keyingi davrda amaliy tilshunoslikka katta e'tibor berildi: ikki tilli lug'atlar (o'zbekcha-forscha, o'zbekcha-turkcha, o'zbekcha-ruscha va aksincha) tuzildi, leksikologiya va leksikografiya rivojlandi.

I.P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, inson borliqni ikki xil yo'l orqali idrok etadi:

1. predmet va hodisalarni sezgi organlari (ko'rish, eshitish, ta'm bilish va boshqalar) vositasida qabul qilish – bu birinchi signallar tizimi,

2. so'zlarning ta'siri orqali qabul qilish – bu ikkinchi signallar tizimi.

Birinchi signallar tizimi hayvonlarga ham, odamlarga ham xos bo'lsa, ikkinchi signallar tizimi faqat insongagina tegishlidir. Shu sababli til jamiyatga xizmat qiluvchi ikkinchi darajali belgilash tizimi sifatida qaraladi.

Til o'zining maxsus tuzilishi bilan yagona, yaxlit tizimdir. U o'zaro bog'liq, bir-birini taqozo etuvchi moddiy birliklardan tashkil topadi va o'ziga xos qurilish xususiyatiga ega murakkab hodisadir. Tilni tashkil etuvchi lingvistik birliklar, ular o'rtasidagi munosabat va bog'lanish qonuniyatlari tilning strukturasini belgilaydi.

Til tizimi o'zining murakkabligi va ko'p qatlamlili (sathlili) bilan ajralib turadi. Uning fonetik jihati, leksik qatlami, morfologik va sintaktik tuzilishi bir-biri bilan dialektik bog'lanishda mavjud bo'lib, yaxlit tizimni hosil qiladi va tilning obyektiv mavjudligini ta'minlaydi.

Tilning har bir elementi butunlikning tarkibiy qismi bo'lib, boshqa birliklar va elementlar bilan bevosita yoki bilvosita aloqada bo'ladi. Shu bois til tizimi vazifa, qo'llanish va rivojlanish nuqtayi nazaridan ham murakkab va ko'p tarmoqli hisoblanadi.

Har bir sath – fonetik, leksik va grammatik qatlam – o'z ichida ham alohida tizimdir. Ular o'ziga xos strukturaviy elementlardan tashkil topadi va muayyan ijtimoiy vazifani bajaradi. Shunday ekan, tilni “tizimlar tizimi” deb atash mantiqan to'g'ri bo'ladi. Til sathlari makrosistema sifatida qaralsa, ularning ichki bo'linmalari – mikrosistemalar sifatida namoyon bo'ladi. Falsafiy jihatdan

qaraganda, har qanday makrosistemaning ichki tuzilishi mikrosistemalardan tarkib topadi.

XULOSA

Til – belgilar tizimi sifatida inson tafakkurining eng muhim vositasidir. Uning fonetik, morfologik, leksik, sintaktik va nutqiy sathlarga ajratilishi tilning ichki strukturasi va ishlash mexanizmini anglashda muhim ahamiyatga ega. Har bir sathning birligi yuqori bosqichdagi birlik uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Shunday qilib, tilni yaxlit tizim sifatida o‘rganish lingvistik tadqiqotlarning ilmiy samaradorligini oshiradi hamda amaliy nutq madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. – Toshkent, 2010.
2. Abduhakimovich, M. Q. (2022). MEANS OF LINKING TEXT COMPONENTS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(6), 232-234.
3. Akbarovich, Axrorov Alisher. "MAQOLLARDA UMUMYASHIRIN MA'NONING NAMOYON BO 'LISH OMIL, VOSITA VA USULLARI." TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI 3.4 (2023): 163-166.
4. Rasulov, R. (2013). Umumiy tilshunoslik. Toshkent – 2013.
5. Солнцев, В.М. Язык как системно-структурное образование
6. Shayxislamov, N. (2021). Tilshunoslik nazariyasi va tushunchasi. The 21st Century Skills for Professional Activity, (3).